

MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA O'ZBEK ADABIY TILINING ME'YORLASHTIRILISHI

Safarov Firuz Sulaymonovich

*Filologiya fanlari nomzodi, dosent, Buxoro
davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim
nazariyasi va metodikasi kafedrasi.*

Annotasiya

Maqolada sho'ro davrida o'zbek adabiy tilining noto'g'ri me'yorlashtirilgan jihatlari tahlil qilinib bugungi kunda o'zbek tilshunosligi oldida turgan birlamchi vazifa ona tilining sistem tuzilishiga tayangan holda adabiy til me'yorlarini isloh qilishdan iboratligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: mustamlakachilik, davlatning til siyosati, ruslashtirish, me'yor, me'yorlashtirish, kodifikasiya, milliy ruh.

Аннотация

В статье анализируются неправильно нормированные аспекты узбекского литературного языка в советское время и обосновывается что первостепенной задачей узбекского языкознания сегодня является реформирование норм литературного языка на основе системного устройства родного языка.

Ключевые слова: колониализм, языковая политика государства, русификация, норма, нормирование, кодификация, национальный дух.

Note

This The article analyzes the incorrectly normative aspects of the Uzbek literary language in Soviet times and argues that the primary task of Uzbek linguistics today is to reform the norms of the literary language based on the systemic structure of the native language.

Key words: colonialism, language policy of the state, russification, norm, regulation, codification, national spirit.

Sho'ro tuzumida davlat siyosati va unga mos ravishda til siyosatining botiniy maqsadi xalqlarning o'zi-yu tilini yaqinlashtirish niqobi ostida ruslashtirish bo'lganidan milliy adabiy tillarni me'yorlashtirishda olimlar hukmron xalq tilining xususiyatini asos qilib olishga majbur bo'ldi. Ushbu talabga rioya qilmagan olimlar tahqirlandi, qattiq jazolandi [7, 24-b.]. Masalan turkiyshunos olim akad. K. K. Yudaxin qirg'iz va rus tillari orasida o'xshashlikdan ko'ra farq ko'p degan fikri

uchun mayda burjua millatchisi deb badarg'a qilinadi [14, 9-b.]. Holbuki olimning fikr 19-asrdayoq tilshunoslikda turkiy tillar morfologik tuzilishi jihatdan agglyutinatív, slavyan tillari flektiv xususiyatga egaligi haqidagi nazariy fikrga hamohang edi.

Mazkur til siyosati izchil amalga oshirilganidan ko'pchilik tilshunos milliy ruhdan mahrum bo'lib g'ayriilmiy yo'l tutishga majbur bo'ladi. O'zbek tilshunosligida ham ko'p holda shunday bo'lganini ko'ramiz. Aniqroq aytganda me'yorlashtirish tilning struktur xususiyati (mazmuniy tartiboti)ga putur yetkazmay uning barqarorligini ta'minlashga ko'maklashuvi darkor degan ta-labga rioya qilinmaydi. SHu bois me'yorlashtirish ko'p jihatdan to'g'ri amalga oshirilgan deb bo'lmaydi [7, 24-b.]. Dalillarga murojaat qilaylik.

Kirill yozuvi asosida tuzilgan o'zbek alifbosiga o'zbek tiliga xos bo'lmagan *ye, yo, yu, ya, s* harflari, yumshatish belgisi (*)* kiritildi. Tilimizda mavjud burun tovushi (*ng*) uchun esa alohida harf belgilanmadi.

S harfi bildirgan tovushning rus tilidagi kabi talaffuz qilinishi imlo qoidasida belgilab qo'yildi: *s* harfi: *sex, sirkul, senzura, sement, silindr, revolyusiya, konstitusiya, sosializm, prosent* kabi so'zlarda ajratilmay aytiladigan *ts* tovushlari birikmasi o'rnida yoziladi [8, 8-b.]. Imlo qoidalarida *i* harfining ruscha *y* tovushini ifodalashi ham me'yorlashtirildi: *posilka, vishka, vistavka, viveska* kabi so'zlarda ruscha *y* unlisi o'rnida yoziladi [8, 8-b.].

Bu davrda kishilar ismi, familiyasi, ota ismi ham pasport va guvohnomalarda rus tiliga moslashtirib xato yozildi. Natijada *Axmed, Dilyarom, Ibragimov, Djumayev, Maxmudovich, Gulyamovich* kabi ism, familiya, ota ismlari paydo bo'ldi.

O'zbek adabiy tili leksikasini boyitishda o'zbek tilining ichki imkoniyatidan emas, rus tilidan so'z o'zlashtirishdan foydalanildi. Sobiq ittifoqdagi barcha tillar uchun umumiy lug'aviy fond yaratishga, shu yo'l bilan ana shu turli tizim va oilalarga mansub bo'lgan tillarni yaqinlashtirishga harakat qilindi. Ana shu harakat tufayli o'zbek tilida avvaldan mavjud so'zlar o'rniga ruscha va rus tili orqali tarqalayotgan baynalmilal so'zlarni qo'llash siyosiy jihatdan qo'llab quvvatlandi [19, 61-b.]. Vaholanki til lug'at tarkibini boyitishning to'g'ri yo'lini o'z vaqtida prof. A. Fitrat ko'rsatib bergan. Fitratning fikricha, milliy tillarni rivojlantirishning bosh omili har bir tilning o'z imkoniyatlari asosida yangi so'z yasashdir. Ijtimoiy hayotda vujudga kelgan yangi tushunchalar imkon qadar milliy tilning o'z unsurlari bilan ifodalanishi kerak. Yangi tushunchalar hosil bo'lar ekan,

ularni ifodalovchi yangi so'zlar, yangi shakllar izlab topish, tillarni ana shu tarzda boyitish eng to'g'ri yo'ldir. Tilning milliy tabiatidan kelib chiqqan holda yasalgan, o'sha tilning ichki qonuniyatlariga to'la mos keladigan bunday yangi yasama so'zlar tilning sofliğini, milliyliğini saqlashga xizmat qiladi [21, 17 – 18-b.]. Biroq sho'ro davrida bu ko'rsatmaga amal qilinmadi.

Faqat leksika emas, grammatikaga nisbatan ham shunday yo'l tutildi. O'zbek tilining grammatik me'yorini kodifikasiya qilishda ya'ni o'zbek ada-biy tilining grammatik qonun-qoidalarini belgilashda ona tilimizning struktur xususiyati emas, rus tilining tuzilishiga xos belgi-sifatlar asos qilib olindi. Holbuki nazariy tilshunoslik asoschisi V.Humbolt tillarning grammatik jihatdan farqi xalqlarning grammatik nazari, idroki (grammatische Ansicht) dagi farq bilan bog'liq bo'lganidan *lug'atga nisbatan grammatikada millatning ruhiy o'ziga xosligi ko'proq aks etadi* [6, 21-b.] deb yozgan edi. Bu qimmatli fikr inobatga olinmadi [7, 24 – 25-b.].

O'zbek tilining grammatik qurilishi haqida yaxlit ta'limot yaratgan olim prof. A.G'ulomov bir o'rinda har bir shaxsli fe'l bir gapni hosil qiladi: bunda sub'ekt ma'nosi ham berilgan bo'ladi. Bu bir so'z tusidagi butunlik gapning eng sodda formasidir [24, 87-b.] deb yozadi. Bu to'g'ri fikr bo'lib olim me'yor (qoida) belgilashda o'zbek tilining grammatik tuzilishiga asoslangan. Biroq A. G'ulomov gap haqidagi ta'limotida bu fikrga emas, unga zid bo'lgan quyidagi fikrga tayanib ish tutadi: Bosh bo'laklar (ega va kesim) gapning mazmun jihatidan ham, formal jihatidan ham o'zaro bog'langan ikki uyushtiruvchi markazi bo'lib, ular predikativ aloqa orqali o'zaro tutashgan bo'ladi. Bu predikativ yadro, konstruktiv markaz ikki sostavli gapning asosidir. Bunda modallik, zamon va shaxs ifodalanadi. Demak, gapning predikativ asosini bosh bo'laklar tashkil qiladi [24, 68 – 69-b.]. Bu qoida rus tilining xususiyatini aks ettiradi. A. G'ulomov sodda gap talqinida keyingi fikrga asoslanib ish tutganidan avval ikki bosh bo'lakli, so'ngra bir bosh bo'lakli gapni olib qaraydi. Bir bosh bo'lakli gapning xususiyati va turlarini belgilashda ham ruscha andoza asos qilib olinadi. Ajnabiy til sintaktik tuzilishini aks ettiruvchi bu qoidalar o'rta va oliy ta'lim dasturu darsliklariga kiritilganidan umumxalqiylik, umummajburiylik tusini oldi [7, 25-b.].

A. G'ulomov bosh bo'laklarning mavqei, o'zaro munosabatini ham rus tiliga asoslanib belgilaydi: Ega ikki sostavli gapning bosh bo'laklaridan biridir: u hokim sostavning grammatik markazi, shu sostavdagi bo'laklarga, shuningdek tobe sostavdagi bosh bosh bo'lakka – kesimga ham hokimdir. Ega absolyut hokim holatdagi bo'lakdir [24, 76–76-b.].

O'zbek tilining ichki qurilishidan kelib chiqib yondashilsa o'zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiuvchi markaziy bo'lak kesim [11, 66-b.] bo'lib qolgan bo'laklar kesimning kengaytiruvchilari yoki kengaytiruvchilarning kengaytiruvchilari hisoblanadi. Bu jihatdan ega ham kesimning sub'ekt valentligini to'ldiruvchi bo'lak – gap tuzilishini kengaytiruvchi hisoblanadi [11, 66 – 67-b.].

A. G'ulomov grammatik me'yor belgilashda har bir tilning tuzilishidan kelib chiqish lozimligini yozadi: Har bir tilning grammatik qurilishi ma'lum norma, qonun-qoidalarga ega. Bu norma, qonun-qoidalar til strukturasi o'zida bor, grammatikada shular ma'lum tartibda bayon qilinadi [19, 53 – 54]. Ammo amalda o'zbek tili grammatik qurilishining o'ziga xos xususiyatiga emas, rus tili grammatik tuzilishiga asoslanib me'yor belgilanganligini kuzatamiz. Jumladan olim 1965 yilda nashr etilgan darslikdagi Kesimning ega bilan moslashuvi mavzusida shunday deb yozadi: Hozirgi o'zbek tilida, ayniqsa matbuot tilida, ega va kesimning mosligidan chekinish – ega ko'plik bo'lganda ham kesimni birlik formasida qo'llash kam uchraydi. Bu moslik juda ko'p hollarda saqlanadi [23,113-b.]. Bu fikrni dalillash uchun jumladan quyidagi misol beriladi: *Kolxozimiz a'zolari bu ishda ham g'ayrat ko'rsatayotir-lar...* — *Usmonov va Ubaydullaev o'rtoqlarning brigadalari hammadan oldin bormoqdalar* («S.O'zb.»). Misolga shunday izoh beriladi. *O'zbek tilining o'sishidagi bu hodisa tilning yutug'i bo'lib, u tobora kuchayib bormoqda. O'zbek tilining o'sishidagi bu hodisa rus tilining o'zbek tili taraqqiyotidagi progressiv rolini – ta'sirini ko'rsatadigan faktlardan biridir* [23,113-b.].

Izohdan ko'rinadiki ega ko'plikda bo'lganda kesimning ham ko'plikda kelishi ya'ni ega *-lar* olganda kesimga ham *-lar* qo'shilishi o'zbek tilining grammatik tuzilishiga xos emas ekan. Darhaqiqat ko'plik ma'nosini ifodalashda kesimda qo'shimcha (*-lar*)ni tejash o'zbek tilida qadimdan bo'lgan. Bizga asrlar osha yetib kelgan ertaklarga murojaat qilaylik: *Devlar bir uxlaganda qirq kun uxlar ekan.* (O'tinchi bilan tulki ertagidan), *Qizlar orqada qolibdi* (Tohir va Zuhra ertagidan). Ikkala misolda ham ega ko'plikni ifodalagani uchun kesimga *-lar* qo'shilmagan. O'zbek tilining xususiyatini his qilgan yozuvchilar ham bunday holda tejamkorlikka amal qiladi: *Mehmonlar juda charchagan edi* (A. Qahhor, Kartina). *Qizlar saharda turnaqator dalalaydi* (T. Murod, Otamdan qolgan dalalar). *Otlar o'z-o'zidan asta-sekin yurib ketdi* (A. Qahhor, Xotinlar). *Qattiq shamolga o'rganmagan daraxtlar quladi* (A. Qahhor). Binobarin ega ko'plikni ifodalaganda

kesimda *-lar* tejalishi asrlar osha hozirgi avlodga yetib kelgan. Shu bois uni eskirgan qoida deb hisoblay olmaymiz.

A. G'ulomov ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan rus tilining xususiyati hamda ta'sirini asos qilib olganidan ushbu mavzudagi boshqa ko'pchilik qoida ham o'zbek tilining struktur xususiyatiga (tejamkorlikka) mos kelmaydi [7, 27-b.].

Avvalo shuni aytish kerakki tejamkorlik zuhur bo'luvchi birgina kesim-dan iborat gap umuman tilga olinmaydi, faqat ikki bosh bo'lakli sodda gap olib qaraladi [7, 27-b.].

A. G'ulomov logik va grammatik miqdorni bir-biridan tamomila farq qiluvchi hodisa deb ularning mushtarakligi, o'zaro uzviy bog'langanligini inobatga olmaydi. Ega va kesimning mosligi, ya'ni birlik-ko'pligini sof grammatik ma'noda tushunamiz [23,112] deb *-lar*, *-(i)sh* olgan va ularsiz kelgan shakllarning sintaktik xususiyati, ya'ni ega-kesimni bog'lash vazifasi qoida qilib beriladi. Bunda *-lar*, *-(i)sh* faqat ko'plik, ularni olmagan shakl faqat birlik bildiradi deb hisoblaydi. Ammo qoidadan oldin mazkur shakllarning logik miqdor (birlik-ko'plik) bilan munosabatini quyidagicha izohlaydi. *Bolalar yugurdilar* deganda ega ham, kesim ham ko'plik ma'nosini anglatadi va ko'plikning morfologik ko'rsatkichiga ega bo'ladi. Bunday holda logik va grammatik hodisa bir-biriga mos keladi. *Xalq ishladi* misolida ega ham, kesim ham birlik formasida, lekin ega ko'plik-jamlik ma'nosida, kesim yakka holda bu ma'noni anglatmaydi. Shunga ko'ra grammatik moslik boru, lo-gik moslik yo'q. *Xaloyiq to'planishdi* gapida ega ko'plik-jamlik ma'nosida, lekin birlik formasida, kesim ko'plik formasida bo'ladi [23, 112-b.].

O'zbek tilining grammatik xususiyatidan kelib chiqsak III shaxsda kesimning ega bilan sonda moslashuvini boshqacha talqin qilishga to'g'ri keladi. III shaxsdagi kesimga qo'shilgan *-lar* shakl sintaktik vazifa bajarmaydi. Chunonchi *Bolalar keldilar* deganda fe'l kesimdagi *-lar* moslashuv vazifasini emas, ko'plikni ta'kidlash vazifasini bajaradi. Bunga ishonch hosil qilish uchun fe'ldagi *-lar* qo'shimchasini tushirib qoldirish mumkin. Bu holda ham ega va kesim sintaktik jihatdan bog'lanaveradi: *Bolalar keldi*. Bu gapdagi birlik shakli deb qaraladigan fe'l kesim aslida birlik va ko'plik ma'nosiga betaraf bo'lib [7, 193-b.] bu o'rinda ega yordamida ko'plikni ifodalagan. Binobarin o'zbek tilida ega ko'plikda bo'lganda ta'kid nazarda tutilmasa kesimga *-lar* qo'shilmaydi, tejaladi.

Eganing aniqllovchisi sanoq son, miqdor ravishidan ifodalanganda kesim ko'pincha birlik, ba'zan ko'plik formasida keladi deb quyidagi

misollar be-riladi: *O'n kishi keldi. O'n kishi kelishdi. – Bir qancha odam oldinga yugurdilar (yugurishdi)* [23, 114 – 115-b.]. Birinchi misolda tejamkorlikka rioya qilingan. *-lar* na ega, na kesimga qo'shilmay ikki marta tejalgan. A. G'ulomov lug'aviy miqdorni inobatga olib rus tilining ta'siriga berilmagan. Ikkinchi, uchinchi misolda *-lar, -(i)sh* qo'llanishining sababi aytilishi kerak. Qo'shimchani tejalishi nohissiy (ob'ektiv, neytral), qo'llanishi hissiy (sub'ektiv) bayonga xosligini hisobga olsak ta'kid nazarda tutilganda mazkur qo'shimchalarning ishlatilishini to'g'ri deb bo'ladi [7, 28-b.].

Ega ko'plik formasida kelganda (III shaxs) ot kesim birlikda ham, ko'plikda ham qo'llana oladi deb, quyidagi misollar beriladi: *Ular studentlar. – Ular student. Bu qizlar shaxmatchilar. – Bu qizlar shaxmatchi. Qo'shnilarim ham halol odamlar (S.O'zb.)* [23, 116 – 117]. Bunday holda ot kesimning ko'plik shaklida ishlatilishi rus tili ta'sirining natijasi ekanligi muallifning O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi asarida aytilgan: Kesim vazifasidagi ot, ega ko'plikda bo'lganda ham, birlikda qo'llanadi. Bu ot kesim aniqlovchili bo'lganda, ko'plikda qo'llanadi. – *Uning o'g'illari – kechagi shaxmatchilar*. Bu kesim aniqlovchisiz bo'lganda ham ba'zan ko'plik formasini olishi mumkin (*ular – studentlar*). Bu rus tilining ta'siri bilan tug'ilgan yangi hodisa bo'lsa kerak [22, 24]. Bu fikrdan ayon bo'ladiki ega ko'plikda kelganda ot kesimga *-lar* qo'shish o'zbek tilining xususiyati emas ekan. O'zbek tilida bayon oddiy, nohissiy bo'lsa qo'shimcha tejaladi, ta'kid nazarda tutilsa *-lar* emas, boshqa vosita qo'llanadi [7, 29].

Sho'ro davrida otning son kategoriyasi xususiyati ham rus tili asosida talqin qilindi. A.G'. G'ulomovning O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi risolasida aytilishicha masalaga logik jihatdan qaraganimizda *kishilar* ham, *ko'p kishi* ham, *oz kishi* ham, *xalq* ham ko'plikni, jamlikni anglatadi [22, 3-b.]. Grammatik nuqtai nazardan qaraganimizda bularning ifodalanishlari, shakllanishlari turlicha bo'lib, bir-biridan tamoman boshqa-boshqa kategoriyalar ekanligi anglashiladi [22, 3-b.]. Ko'rinadiki tilshunos logik va grammatik ko'plikni farqlab bu ma'noni ifodalovchi barcha vositani grammatik ko'plikka kiritmaydi. Prof. A.G'ulomov ko'plikning morfologik yo'l (otda *-lar*, fe'lda *-ingiz, -k, -lar* va h.k.) bilan ifodalanishini grammatik ko'plik deb hisoblaydi. Bu ma'noning leksik (*el, qo'shin, poda*) va sintaktik yo'l bilan (*yuzta daftar*) anglashilishiga logik hodisa deb qaraydi. Bunday hollarda *-lar* olmagan ot ko'plik ma'nosini ifodalasa ham grammatik jihatdan birlikda deb qaraladi.

O'zbek tilshunosligida son kategoriyasi bo'yicha qilingan keyingi ishlarning barchasida prof. A. G'ulomov ta'limoti asos qilib olindi. Akademik

grammatika [19], oliy o'quv yurti darsliklari [18; 16; 13] ushbu mavzu mazkur olimning fikrlariga tayanib bayon qilindi. Maktab darsliklarida ham shu qarash asosida otning tub shakli birlik, *-lar* olgan shakli ko'plikni bildiradi deb qoida qilib berildi [17, 70 –71-b.; 2, 124-b.].

Turkiyshunoslar V.G. Guzev va D.M. Nasilov otning *-lar* olmagan shaklini birlik shakli deb qarash hind-evropa jumladan rus tili grammatikasi xususiyatini turkiy tillarga tatbiq qilish natijasi ekanligini ko'rsatadi [4; 5]. Chunki rus tilida son kategoriyasi shakllari ikki xil: formal sintaktik va mazmuniy (logik) vazifa bajaradi. Shuning uchun bu tilda otning o'zak-negizi miqdor ma'nosiga munosabatidan qat'i nazar formal son (birlik yoki ko'plik) shaklida bo'lishi shart [4, 100-b.]. Shunga ko'ra biror ot birlik (yoki ko'plik) son shaklida bo'lsa u albatta bitta (yoki birdan ortiq) mavjudotni ifodalaydi deb bo'lmaydi [12, 63-b.]. Turkiy tillarida esa son kategoriyasi shakllari faqat mazmuniy vazifa bajaradi [4, 100-b.]. Binobarin o'zbek tilida sonni logik va grammatik (formal) deb ikkiga ajratib, birinchisi grammatikada o'rganilmaydi deyish to'g'ri emas. Boshqacha aytganda son kategoriyasida otning lug'aviy mazmunidan anglashilgan miqdor ma'nosini inobatga olish mumkin emas deyish to'g'ri bo'lmaydi [9, 66-b.]. Son kategoriyasi shakllariga otning lug'aviy mazmunidan anglashilgan miqdor ma'nosini inobatga olib yondashilsa oliy va o'rta maktab darsliklarida birlikni bildiradi deb berilgan (donalab sanaladigan) otlar aslida birlik, ko'plik va umumiylik ma'nosiga betaraf ekanligi ma'lum bo'ladi [9, 67-b.]. Bunday otlar birikma, gap, matnda qulay vosita yordamida mazkur ma'nolardan birini ifodalaydi [9, 68 – 70-b.].

Sho'ro davrida egalik ma'nosining faqat qo'shimcha (*kitobim*) va qo'shimcha hamda so'z (*mening kitobim*) bilan ifodalanishi orasidagi farq ham belgilab berilmadi ya'ni me'yorlashtirilmadi. Tilga ruhiy-ijtimoiy xilqat sifatida yondashilgan monografiyada [7] egalikning bu ikki usul bilan ifodalanishi quyidagicha talqin qilinadi: Hissiy bayonda qaratqichni ifodalash uchun olmoshning qo'llanishi to'g'ri bo'ladi. Egalikning denotativ xususiyatiga konnotasiya qo'shilib ifodaning ta'sir kuchi ortadi. Nohissiy bayonda esa qaratqichni ta'kidlash, ajratib ko'rsatish shart bo'lmaydi. Qaratqichni faqat qo'shimcha bilan ifodalashning o'zi kifoya qiladi [7, 294-b.]. Qaratqich ifodalanishidagi ana shu farqni inobatga olmaslik kishilik olmoshini noto'g'ri, noo'rin qo'llashga olib keladi va buni ajnabiy til (rus, nemis, ingliz tillari) ta'siri oqibati deb izohlashga to'g'ri keladi. SHO'ro davrida masalaning shu jihatiga yetarli e'tibor

berilmaganidan bunday qusur faqat tarjima asarlarda emas, grammatikaga doir adabiyotlarda ham ko'zga tashlanadi. Binobarin mazkur kamchilik grammatik me'yor belgilovchilar nutqida ham uchraydi. Oqibatda estetik omil inobatga olinmay nutq madaniyatiga putur yetadi [7, 294-b.].

Ot predmet, predmetlik ma'nosini bildiradi [19, 124,125-b] degan ta'rifda predmet so'zini o'zbek tilining xususiyatiga mos keladi deb bo'lmaydi. Ta'rifdagi mazkur so'z *mavjudot* so'zi bidan almashtirilsa to'g'ri bo'ladi. Negaki ot inson nomini ham anglatadi, insonni esa predmet deb bo'lmasligi hech kimga sir emas [7, 31-b.].

Sho'ro davrida qo'shma gaplar talqinida ham rus tiliga asoslanib ish tutildi. Jumladan rus tili me'yorlari ta'siri ostida o'zbek tilidagi "quyosh chiqqach atrof yorishdi" kabi bir kesimli gaplar gaplar zo'rma-zo'rakilik bilan ikki gap birikishi – qo'shma gap deb talqin etiladi [25, 16-b.].

Bu davrda tinish belgilarining qo'llanish qoidalari ham rus tili asosida me'yorlashtirildi. Amalda tinish ishoralari rus tilida qanday bo'lsa o'zbek tilida ham shunday ishlatilaveradi. Boshqacha aytganda tinish ishoralarining mezon va qonun-qoidasi rus tilidan aynan ko'chirilib hukmron xalq tiliga taqlid qilindi [7, 453-b.].

SHo'ro saltanati mafkurasiga mos ravishda til faqat ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinib, uning ayni paytda ruhiy hodisa ham ekanligi inobatga olinmaganligi oqibatida xalqimizning o'ziga xos ruhiyati aks etgan ayrim grammatik mavzu qisman me'yorlashtirildi. Jumladan xalqimizning ruhiy-ma'naviy xususiyatini aks ettiradigan hurmat ma'nosi kategoriya sifatida o'rganilmadi. O'zbek tilining struktur o'ziga xosligini ko'rsatadigan o'zlashtirmalik rus tilidagidaek faqat sintaktik hodisa sifatida talqin qilinib, uning *-(i)bdi*, *-gan ekan (emish)*, *-(a)r ekan (emish, -sin ekan (emish)* kabi morfologik vositalar bilan ifodalanishi kodifikasiya qilinmadi [7, 31-b.].

Tahlildan ko'rinadiki sho'ro davrida o'zbek adabiy tili bo'limlarini me'yorlashtirishda ko'p holda rus tilining xususiyatiga tayanib ish tutilgan. Yuqoridagi kabi o'zbek tili qurilishiga mos kelmaydigan talqin va qoidalarga yana ko'plab misol keltirish mumkin. Bundan o'zbek adabiy tili qurilishiga mos kelmaydigan qoidalarni o'zbek tili me'yorining barqarorlik belgisi va o'zbek tili tuzilishining o'ziga xos xususiyatiga tayanib isloh qilish lozimligi ayon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. I tom. Toshkent, Fan, 1978.
2. Asqarova M., Qosimova K. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. yettinchi nashri. Toshkent, O'qituvchi. 1993.
3. Begmatov E. Adabiy norma va nutq madaniyati. Toshkent, 1983.
4. Guzev V. G., Nasilov D. M. K interpretatsii kategorii chisla imyon sushestvitelnyx v tyurkskix yazykax. Journ. "Voprosy yazykoznaniiya". 1975, № 3.
5. Guzev V. G., Nasilov D. M. Slovoizmenitelnye kategorii v tyurkskix yazykax i ponyatie «grammaticheskaya kategoriya» // Journ. "Sovetskaya tyurkologiya". 1981. №3. S. 22 – 35.
6. Gumboldt V. Izbrannye trudy po yazykoznaniiyu. Moskva, "Progress", 1984.
7. Zikrillaev G'. Ruh va til. Toshkent, Fan, 2018.
8. Imlo lug'ati. Toshkent, O'qituvchi, 1978.
9. Istiqlol va ona tili ta'limi (to'plam). Toshkent, Fan, 2000.
10. Iskovich V. A. YAzykovaya norma. Moskva, "Prosveshenie", 1968.
11. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent, O'qituvchi, 1995.
12. Miloslavskiy I. G. Morfologicheskie kategorii sovremennogo russkogo yazyka. Moskva, «Prosveshenie», 1981.
13. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. Toshkent, O'qituvchi, 1978.
14. Ne'matov H. Sosiolingvistika. Buxoro, 2001.
15. Tezisy prajskogo lingvisticheskogo krujka // Zveginsev V. A. Istoriya yazykoznaniiya XIX i XX vekov v ocherkax i izvlecheniyax. CHast II. Moskva, 1960.
16. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullaev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, O'qituvchi, 1992.
17. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Ashurova N. Ona tili. Uchinchi sinf uchun darslik. Toshkent, O'qituvchi, 1995.
18. SHOabdurahmonov SH. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, O'qituvchi, 1980.
19. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. Toshkent, Fan, 1975.
20. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jild. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
21. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va o'zbek tilshunosligi (metodik qo'llanma). Toshkent, Universitet, 1997.
22. G'ulomov A. O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi. Toshkent, O'zdavnashr, 1944. 56 bet.
23. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent, O'qituvchi, 1965.
24. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent, O'qituvchi, 1987.
25. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Toshkent, O'qituvchi, 1995.